

Bosh ilmiy-metodik  
markaz

**2022**

O'quv-uslubiy majmua

**TA'LIM MENEJMENTIDA PR-MEXANIZMI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**“Ta‘lim tizimi menejmenti” yo‘nalishi uchun**

**“TA‘LIM MENEJMENTIDA PR-MEXANIZMI”**

**moduli bo‘yicha**

**O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ta’lim tizimi menejmenti” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** **T.Shodiev** – Toshkent xalqaro Vestminster universiteti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Taqrizchi:** **M.Mahkamova** – TDTU “Menejment” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2022 yil “24” dekabrda 6/4-sonli bayonnoma)

**MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .....</b>	<b>18</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>25</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>39</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>48</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>51</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-sonli, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universitiyes) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish belgilangan.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, insonlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan

oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat tomonidan qo'yilayotgan talablar asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Dastur mazmuni "Ta'lim menejmentida PR – mexanizmi" modulining nazariy uslubiy asoslari, oliy ta'lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari missiyasi, istiqboli, imidji, maqsadi, vazifalari, strategiya va taktikalari haqida axborot ochiqligi, ta'lim tizimida PR–mexanizmini qo'llash muammolari va xalqaro tajribalar bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** kurs tinglovchilarini ta'lim menejmentida PR - mexanizmiga oid bo'lgan zamonaviy nazariya va uslublar, tamoyillar, amaliy tajribalar bilan tanishtirish, ish faoliyatida ularni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali oliy ta'lim tizimida boshqarish sifatini oshirishga qaratilgan mahorat va kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

#### **Modulning vazifalari:**

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim menejmenti PR - mexanizmiga oid zamonaviy nazariy va uslubiy yondashuvlarni, samarali jahon tajribasini hamda respublikamizdagi me'yoriy-huquqiy asoslarini va hujjatlarini chuqur o'rgatish va tahlil etish;

- tinglovchilarning rahbar xodim sifatida o'z faoliyatida ilg'or innovatsion boshqaruv usullarini qo'llashda ta'lim menejmenti PR - mexanizmiga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;

- tinglovchilarda ta'lim menejmenti PR - mexanizmidan samarali foydalanish, OTMning tashqi iste'molchilar, investorlar, xomiylar va ommaviy vositalar, keng jamoatchilik bilan aloqalarini takomillashtirish kompetensiyalarini shakllantirish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

"Ta'lim menejmentida PR - mexanizmi" kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**



- ta'lim menejmentida PR - mexanizmining zamonaviy nazariya va uslublari, tamoyillari va ularning amaliy qo'llanishi bo'yicha jahon tajribasi;

- oliy ta'lim menejmentida PR - mexanizmiga yondashuvlar, ularning xususiyatlari hamda boshqaruv jarayoniga ta'sir etuvchi turli xil omillar;

- oliy ta'lim muassasalari rahbarlarini attestatsiyasi va oliy ta'lim faoliyatining reytingidagi ko'rsatkichlar;

- oliy ta'lim menejmentida PR - mexanizmining innovatsion yondashuvlarini joriy etish yo'llari;

- oliy ta'limda barcha resurslarni boshqarishga tizimli yondashish, ularni rag'batlantirish, faolligini va yaratuvchanlik mahoratini oshirish mexanizmlari haqida **bilimlarga ega bo'lishi**;

#### **Tinglovchi:**

- ta'lim menejmentida PR – mexanizmi orqali oliy ta'limdagi barcha resurslarni boshqarishning nazariy asoslarini va uslublarini amaliyotda samarali qo'llash;

- rahbarlik ish faoliyatida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, tanlash, yollash, rag'batlantirish, integratsiyalashda tashqi aloqalarni inobatga olish;

- oliy ta'lim tizimi boshqaruvida innovatsion g'oya va ishlanmalarni qo'llash, muassasaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishida jahon tajribasini qo'llash;

- inson resurslarini rejalashtirish va prognozlash, istiqbolda kadrlar salohiyatini oshirishda ta'lim menejmentida PR – mexanizmidan foydalanish;

- oliy ta'lim tizimida salohiyatli kadrlarni tayyorlashda investorlar, korxonalar, xomiyalar, jamoatchilik va ommaviy vositalardan foydalanish **ko'nikmalarini egallashi**;

#### **Tinglovchi:**

- OTM ta'lim menejmentida PR – mexanizmini qo'llash orqali oliygoh salohiyatini belgilaydigan va sifatiga ta'sir etadigan ekzogen va endogen omillarni aniqlash va ulardan amaliyotda to'g'ri foydalana olish;

- inson resurslari va boshqa resurslarning strukturasi va dinamikasini yaxshilash, raqobatbardosh bo'lishiga doir muammolarni aniqlash;

- ta'lim menejmentida PR - mexanizmiga tayangan holda oliy ta'lim tizimida barcha resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash, uni takomillashtirish borasidagi faoliyatlarda innovatsiyalarni yaratish va qo'llash;

- inson resurslarini boshqarishda vaziyatli yondashuvni, konflikt situatsiyalarni yechimini topish **malakalarini egallashi**;

#### **Tinglovchi:**

- ta'lim menejmentida PR – mexanizmidan foydalanishda resurslarini boshqarishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish va ularni ilmiy asosda takomillashtirish haqida xulosalar berish;



- ta'lim menejmentida PR – mexanizmi usullaridan foydalangan holda o'quv uslubi, ilmiy va tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirish;
- ta'lim menejmentida PR - mexanizmi konsepsiyasi va tamoyillari negizida inson omilidan samarali foydalanish, OTMning intellektual potensialini rivojlantirish;
- oliy ta'limda ta'lim menejmenti PR – mexanizmi asosida boshqarish sifatini oshirish va boshqaruvni takomillashtirish borasida xulosalar berish;
- inson resurslarini tanlash, taqsimlash, rag'batlantirish va faollashtirishga doir samarali qarorlar qabul qilish;
- OTMning boshqa tashkilotlar va ommaviy vositalar bilan kengaytirish hamda mutanosibligini aniqlash va uni optimallashtirish **kompetensiyalarini egallashi lozim.**

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Ta'lim menejmentida PR – mexanizmi” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blis-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Ta'lim menejmentida PR – mexanizmi” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Oliy ta'limda inson resurslarini boshqarish”, “Oliy ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari”, “Universitet 3.0 modeli va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” va “Moliyaviy o'z – o'zini ta'minlash jarayonida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Mazkur modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim sifati menejmenti asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

## MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	<p><b>“Ta'lim menejmentida PR – mexanizmi” modulining nazariy uslubiy asoslari.</b></p> <p>Oliy ta'lim tizimi menejmentida oliygohlarning tashqi muhit ya'ni ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari, keng jamoatchilik, davlat va jamoat tashkilotlari, oliy ta'limni bitirib chiqqan kadrlarga ish joyi beradigan korxonalar va tashkilotlar, shuningdek ommaviy vositalari bilan aloqalari, muloqoti, munosabati. Oliy ta'lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Oliy ta'lim muassasalari missiyasi, istiqboli, imidji, maqsadi, vazifalari, strategiya va taktikalari haqida axborot ochiqligi.</p>	2	2	
2.	<p><b>Ta'lim tizimida PR–mexanizmini qo'llash muammolari va xalqaro tajriba.</b></p> <p>Oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o'rtasida o'zaro hamkorlikdagi muammo va yechimlar. O'zbekistondagi xorijiy universitetlarning filiallari tajribasi. PR bo'limlari faoliyati. PR-texnologiyalari. Universitetni bitirganlar jamiyati.</p>	2	2	
3.	<p><b>Kadrlar tayyorlashda ilg'or xorijiy tajribalarni, buyurtmachilar va jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan muloqot.</b></p> <p>Universitetlar kompleksi, davlat xususiy sektor sherikchiligi asosida kadrlarni tayyorlash. Mehnat bozoridagi xorijiy va mahalliy tendensiyalarni inobatga olish. Oliy ta'lim menejmentining PR -mexanizmidagi tavsiflari. Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshlik</p>	4		4

	mezonlari va ko'rsatkichlari.			
4.	<b>Oliy ta'lim muassasalarida PR–mexanizmini qo'llash tajribalari va muammolari.</b> Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash jarayonida talabalar, bitiruvchilar, ish beruvchilar hamda ota-onalarning fikrini o'rganish usullari. Kadrlar tayyorlashdagi komplaynlar.	4		4
	<b>Jami:</b>	<b>12</b>	<b>4</b>	<b>8</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR

### 1-MAVZU: TA'LIM TIZIMI MENEJMENTIDA PR – MEXANIZMINING NAZARIY – USLUBIY ASOSLARI (2 soat)

Oliy ta'lim tizimi menejmentida oliygohlarning tashqi muhit ya'ni ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari, keng jamoatchilik, davlat va jamoat tashkilotlari, oliy ta'limni bitirib chiqqan kadrlarga ish joyi beradigan korxonalar va tashkilotlar, shuningdek ommaviy vositalari bilan aloqalari, muloqoti, munosabati.

Oliy ta'lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Oliy ta'lim muassasalari missiyasi, istiqboli, imidji, maqsadi, vazifalari, strategiya va taktikalari haqida axborot ochiqligi.

### 2-MAVZU: TA'LIM TIZIMIDA PR –MEXANIZMINI QO'LLASH MUAMMOLARI VA XALQARO TAJRIBA (2 soat)

Oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o'rtasida o'zaro hamkorlikdagi muammo va yechimlar. O'zbekistondagi xorijiy universitetlarning filiallari tajribasi.

PR bo'limlari faoliyati. PR-texnologiyalari, Universitetni bitirganlar jamiyati.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

### 1-MAVZU: KADRLAR TAYYORLASHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI, BUYURTMACHILAR VA JAMOAT TASHKILOTLARI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI BILAN MULOQOT. (4 soat)

Universitetlar kompleksi, davlat xususiy sektor sherikchiligi asosida kadrlarni tayyorlash. Mehnat bozoridagi xorijiy va mahalliy tendensiyalarni inobatga olish. Oliy ta'lim menejmentining PR -mexanizmidagi tavsiflari. Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshlik mezonlari va ko'rsatkichlari.

### 2-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA PR –MEXANIZMINI QO'LLASH TAJRIBALARI VA MUAMMOLARI (4 soat)

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash jarayonida talabalar, bitiruvchilar, ish beruvchilar hamda ota-onalarning fikrini o'rganish usullari. Kadrlar tayyorlashdagi komplaynlar.

## O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 30 dekabr soni.

### III. Maxsus adabiyotlar:

1. Abduraxmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyot. Darslik. - T., "Fan" nashriyoti. 2019.

2. Abduraxmanov K.X. Ekonomika truda. Teoriya i praktika. Uchebnik. Moskva. Izdatelstvo REA im.Plexanova. -M., 2019.

3. Antipov K.V. Основы рекламы. Uchebnik. M., Dashkov i K. 2012.

4. Varakuta S.A. Svyazi s obshchestvennostyu. Uchebnoe posobie. M., Izdatelstvo sentr INFRA -M. 2013.

5. Odegov Y.G., Zakirova N.K. The Economics of Personnel Management. Textbook. -T., "Iqtisodet" publishing house. 2015. -260 paGES.

6. Akvazba Ye.O., Uxabina T.Ye., Cheremisina Ye.V. Kachestvo obrazovaniya v sovremennoy obrazovatelnoy organizatsii: problemy i perspektivy // Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya. - 2015. - 5. URL:www.science-education.ru/128-21477 (data obrazeniya: 28.08.2015).

7. Balaskiy Ye.V., Yekimova N.A. Mejdunarodnye reytingi universitetov: praktika sostavleniya i ispolzovaniya // Ekonomika obrazovaniya. - 2012.

8. Korznikova G.G. Menejment v obrazovanii. Prakticheskiy kurs.-M. «Akademiya», 2008. -288 str.

9. Uzbekistan. Modernizatsiya sistema vysshego obrazovaniya. Sektor po chelovecheskomu razvitiyu. Otdel po rabote so stranami sentralnoy Azii. Regionalnoe upravlenie po Yevrope i sentralnoy Azii. Dokument Vsemirnogo banka. - 2014. - 156 s.

10. Armstrong, M., (2011). How to be an even better manager. Kogan Page, Philadelphia, 303 p.

11. Nordstrom, Kjell A., Ridderstrale, Jonas (2000). Funky Business: Talent Makes Capital Dance. (<https://books.google.com>).

12. Svyazi s obshchestvennostyu (pablik relyshinz). Uchebnoe posobie (M.I. Timofeev). -M., IS RIOR, 2019 .

13. Intellektualnyy kapital - strategicheskiy potentsial organizatsii: Uchebnoe posobie. Pod red. Gaponenko A.L. i Orlovoy T.M. - M.: Izdatelskiy dom «Sotsialnye otnosheniya», 2013.

### IV. Internet saytlar:

1. <http://edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
6. [www.raso.ru](http://www.raso.ru). – Rossiyskaya Assotsiatsiya s obshchestvennostyu.



## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

### «Blum kubigi» metodi.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Ushbu metodni ko‘llash uchun, oddiy kub kerak bo‘ladi. Kubning har bir tomonida ko‘yidagi so‘zlar yoziladi:

- **Sanab bering, ta’rif bering (oddiy savol)**
- **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)**
- **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
- **Taklif bering (amaliyot bilan bog‘liq savol)**
- **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
- **Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)**

2. O‘qituvchi mavzuni belgilab beradi.

3. O‘qituvchi kubikni stolga tashaydi. Qaysi so‘z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

### “KWHL” metodi.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

### Izoh. KWHL:

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo‘ladi?*

*Learn - nimani o‘rganib oldim?.*

<b>“KWHL” metodi.</b>	
<b>1. Nimalarni bilaman:</b> -	<b>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</b> -
<b>3. Qanday qilib bilib va topib olaman:</b> -	<b>4. Nimalarni bilib oldim:</b> -

### **“W1H” metodi.**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

### **“SWOT-tahlil” metodi.**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• kuchli tomonlari
<b>W – (weakness)</b>	• zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O – (opportunity)</b>	• imkoniyatlari
<b>T – (threat)</b>	• xavflar

### “VEER” metodi.

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma материалларни



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### “Keys-stadi” metodi.

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

#### “Assesment” metodi.

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy

yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



**Test**

**Muammoli vaziyat**

**Tushuncha  
(simptom) tahlili**

**Amaliy vazifa**

### “Insert” metodi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma'lumot.	
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.



# III. NAZARIY MATERIALLAR

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-MAVZU: TA'LIM TIZIMI MENEJMENTIDA PR – MEXANIZMINING NAZARIY – USLUBIY ASOSLARI . (2 soat)

##### Reja:


1. Oliy ta'lim tizimi menejmentida oliygohlarning tashqi muhit ya'ni ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari, keng jamoatchilik, davlat va jamoat tashkilotlari, oliy ta'limni bitirib chiqqan kadrlarga ish joyi beradigan korxonalar va tashkilotlar, shuningdek ommaviy vositalari bilan aloqalari, muloqoti, munosabati.

2. Oliy ta'lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Oliy ta'lim muassasalari missiyasi, istiqboli, imidji, maqsadi, vazifalari, strategiya va taktikalari haqida axborot ochiqligi.


- 1. Oliy ta'lim tizimi menejmentida oliygohlarning tashqi muhiti ya'ni ta'lim oluvchilar, ularning ota - onalari, keng jamoatchilik, davlat va jamoat tashkilotlari, oliy ta'limni bitirib chiqqan kadrlarga ish joyi beradigan korxonalar va tashkilotlar, shuningdek ommaviy vositalari bilan aloqalari, muloqoti, munosabati.**

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshiramiz".



“Ta’lim menejmentida PR – mexanizmi” modulining asosiy tamoyillari amerikalik olim S.Blek tomonidan ishlab chiqilgan va ular quyidagi slaydda keltirilgan.



“Ta’lim menejmentida PR – mexanizmi” moduli R.Smit ta’biri bilan aytganda to’rtta bosqichni boshidan kechirgan. Birinchi bosqich aloqa qilish, tovar va

xizmatlarni tashviqot qilish. Shuning uchun bu bosqich manupulyatsiya davri deb ataladi. Ikkinchi bosqich haqqoniy axborot berish, birtomonlama aloqa.uchinchi bosqich ikki tomonlama aloqada ishontirish, tovar yoki xizmatlarni kafolotlash davri. To'rtinchi davr o'zaro ta'sir o'tkazish, ziddiyatlarni muhokama qilib bartaraf etish, ikki va undan ortiq aloqa o'rnatish davri.U 20 asr oxiri va 21 asr boshlariga to'g'ri keladi.

## «PR» ning rivojlanish bosqichlari (P.Смит буйича)

- ▶ Манупуляция даври (19 аср) ташвиқот қилиш, алоқа биртомонлама
- ▶ Ахборот бериш (20 аср боши) ҳаққоний ахборот бериш, биртомонлама алоқа
- ▶ Ишонтириш даври (20 аср ўрталари) жамоатчилик фикри ва ҳаракатига таъсир ўтказиш, икки томонлама алоқа
- ▶ Ўзаро таъсир ўтказиш даври (20 аср охиридан), ўзаро тушуниш ва низоларни бартараф этиш, икки томонлама



► Тўғри ташкил этилган пиарнинг хусусияти шундан иборатки, у ҳозирги эмас балки истиқболдаги вазифаларни бажаришга йўналтирилган.

Масалан тижоратга, тадбиркорликка йўналтирилган пиар янги контрактлар, меморандумлар, конференциялар, давлат грантлари, хомийлар кўмагини, инвестицияларини жалб қилишга олиб келади. Университетларнинг имиджи ортади.

Проф. Дурсун Имомова

**2. Oliy ta'lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Oliy ta'lim muassasalari missiyasi, istiqboli, imidji, maqsadi, vazifalari, strategiya va taktikalari haqida axborot ochiqligi.**

“Ta'lim menejmentida PR – mexanizmi” modulida OTM ning missiyasi, kelajagi, maqsadi, vazifalari, strategiyasi, taktikasi va natijalari barcha ichki va tashqi talabalar, ota onalar, investorlar, bank, moliya, sug'urta, vazirlik va idoralar, xomiylar, OAV, keng jamoatchilikka haqqoniy axborot uzatiladi. Bu axborot universitetning saytida, intranetida, kasaba uyushmasida yaqqol e'lon qilinadi.

Таълим тизими менежментда PR – механизмини қўллашда университетлар хорижий тажрибани қўллаши керак

- ▶ ОТМ миссияси
- ▶ ОТМ келажаги
- ▶ ОТМ мақсади
- ▶ ОТМ вазифалари
- ▶ ОТМ стратегияси
- ▶ ОТМ тактикаси
- ▶ ОТМ натижалари

Проф. Турсун Шайхона

### Таълим менежментининг замонавий концепцияси



ОТМ бошқаришда «Мак-Кинзи» компаниясининг «7s» -- модели қўлланилади:

- ▶ 1) стратегия;
- ▶ 2) қобилият, қўникма ва компетенция;
- ▶ 3) совместные ценности;
- ▶ 4) ташкилий тузилма;
- ▶ 5) тизим ва регламентлар;
- ▶ 6) ходимлар;
- ▶ 7) бошқарув стили.

Проф. Турсун Шайхона





## 2-MAVZU: TA'LIM TIZIMIDA PR –MEXANIZMINI QO'LLASH MUAMMOLARI VA XALQARO TAJRIBA (2 soat)


### Reja:

1. Oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o'rtasida o'zaro hamkorlikdagi muammo va yechimlar. O'zbekistondagi xorijiy universitetlarning filiallari tajribasi.

2. PR bo'limlari faoliyati. PR-texnologiyalari, Universitetni bitirganlar jamiyati.

### **1. Oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o'rtasida o'zaro hamkorlikdagi muammo va yechimlar. O'zbekistondagi xorijiy universitetlarning filiallari tajribasi.**

Hozirgi davrda respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajagimiz uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustuvor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda mustahkamlanib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan, aholi ziyoli qatlamining salmog'ini oshirishga, respublikamiz iqtisodiyotining mustahkamligi va aholi farovonligini yuksaltirish maqsadida faol va halol xizmat qiluvchi bilimli, iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlarsoni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan OTMlari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.



“Harakatlar strategiyasi”ning IV-bo‘lim, 4.4-bandida ta‘lim va fan sohasini rivojlantirishning vazifalari, jumladan, uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; shuningdek, 8-ilovaning 259-bandida: 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish Dasturini ishlab chiqish. ... milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olish, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19 iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish [6] rejalashtirilgan. Bu vazifalarning bosqichma-bosqich, o‘z vaqtida va oqilona amalga oshirilishi ijtimoiy sohalardagi, jumladan, oliy ta‘lim, fan va ishlab chiqarish sohalaridagi mavjud va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etish uchun xizmat qiladi.

Shaxsning aqliy va ma‘naviy talablarini qondirish hamda qobiliyat va iqtidorini shakllantirishda ta‘limning muhim xususiyatlarini davlat, jamiyat va shaxs darajasida tavsiflash mezonini qabul qilingan, ya‘ni davlat mamlakat aqliy va ilmiy salohiyatining rivojlanishi hamda aholining ma‘naviy boyligi va huquqiy madaniyatini oshirishning, jamiyat ta‘limning jamiyatni taraqqiy ettirishga yo‘naltirilgan dunyoqarash va ijtimoiy mentalitet belgilari, global ma‘naviy qadriyatlar shakllanishi, jamiyatda bilimli, oliy ma‘lumotli, ma‘naviyatli, ilmiy salohiyatli insonlar ko‘payishining tarafdori bo‘lsa, shaxs (inson) ta‘lim orqali tabiat in‘om etgan qobiliyatini rivojlantirishi, o‘qish(ish)da o‘zini ko‘rsata olishi, kasbi,

ixtisosligi, egallab turgan vazifasi uchun zarur bo'lgan bilim, uquv, ko'nikma va tajribani egallash ehtiyojini qondiradi. Zero, o'qimishli inson ma'rifatli bo'lishi, boshqalardan bir pog'ona yuqori turishi lozim. U qancha ko'p o'qigan bo'lsa, bu daraja shunchalik yuqori bo'ladi.

Hozirgi davrda OTMni bitirib chiqayotgan yuqori malakali kadrlarning faqat umumkasbiy, ilmiy-texnikaviy, nazariy-amaliy tayyorgarliklari yetarli emas, balki ulardan tafakkurlaridagi mukammallik, jamiyatdagi asosiy jarayonlar va kasbiy rivojlanish masalalariga befarq bo'lmaslik, har qanday holatda ijodiy, mustaqil fikrlash qobiliyatining mavjudligi, xullas, mamlakat, davlat, jamiyat va millat hayotiga daxldorlik hissi bilan yashash talab qilinadi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev zamonaviy oliy ta'lim tizimini tashkil etishning ahamiyati yuksakligi to'g'risida shunday deydilar: “Avvalgi uchrashuvlarda ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi. Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani sababli ushbu sohadagi ishlar shaxsan Bosh vazirga yuklatilgan”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent. – 2017. – 44-bet.

## ОТМ жамоатчилик алоқалари (паблик рилейшинз)



Проф. Дуррон Шаймова

### Жамоатчилик классификацияси



- **ОТМ яқин жойлашган ва унинг фаолиятига қизиқувчи гуруҳлар**
- **ОТМ ходимлари, менеждерлар, ташкилотлар ва бирлашмалар;**
- **Тарихий, ҳозирги ва келгуси истеъмолчилар;**
- **ОТМ хом ашё, электроэнергия ва ускуналар етказиб берувчилар**
- **Молиявий бозор иштирокчилари, банклар,суғурта компаниялари, инвесторлар;**
- **ИТИ,ОАВ,АКТ ташкилотлари, давлат ва нодавлат ташкилотлари, маҳалла фаоллари ва бошқалар**

Проф. Дуррон Шаймова

### Jamoatchilik klassifikatsiyasi:

- OTM yaqin joylashgan va uning faoliyatiga qiziquvchi guruhlar
- OTM xodimlari, menejderlar, tashkilotlar va birlashmalar;
- Tarixiy, hozirgi va kelgusi iste'molchilar;
- OTM xom ashyo, elektroenergiya va uskunalar yetkazib beruvchilar
- Moliyaviy bozor ishtirokchilari, banklar, sug'urta kompaniyalari, investorlar;
- ITI, OAV, AKT tashkilotlari, davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalla faollari va boshqalar

## Олий таълим тизимида «PR» мақсадлари

- ▶ OTM фаолияти тўғрисида жамоатчилик, кадрларга буюртмачилар назаридда яхши фикрни шакллантириш
- ▶ OTM тайёрлаётган мутахассисларнинг савияси ва ишбилармонлиги ҳақида ҳаққоний ахборотни тарқатиш
- ▶ Корхона ва ташкilotлар, давлат бошқаруви соҳасига тайёрланаётган мутахассислар ҳақида ахборотни тарқатиш
- ▶ Ўқув услубий фаолиятлар, таълим тарбия жараёни ҳақида интернет сайтларида ахборот бериш
- ▶ Бешта ташаббус доирасидаги фаолиятлар тўғрисида жамоатчиликни воқиф қилиш
- ▶ OT тизимига оид Президент Фармонлари, Вазирлар Маҳкамаси қарорларини изоҳлаш, оммага етказиш ва уларнинг ижросига ҳисса қўшиш.
- ▶ Интернет орқали маъруза, дарс бериш жараёнлари
- ▶ OAV даги мақолалар, ижодий кечалар ва баддий конкурслар ва ҳзо

## Олий таълим тизимида «PR» объектлари

- ▶ ОТМ, илмий тадқиқот институтлари, вазирликлар
- ▶ Талабалар, педагоглар, Индивидлар, гуруҳлар, жамоатчилик
- ▶ Ўқув услубий фаолиятлар, таълим тарбия жараёни
- ▶ Воқеалар, йиғилишлар, конференция, симпозиум ва ивентлар
- ▶ Бешта ташаббус доирасидаги фаолиятлар
- ▶ Талабалар олимпиадалари, битирув воқеалари, олимлар ва ёзувчилар билан учрашувлар
- ▶ Интернет орқали маъруза, дарс бериш жараёнлари
- ▶ ОАВ даги мақолалар, ижодий кечалар ва баддий конкурслар ва ҳзо

Проф. Эргун Шопира

**Пиар нинг асосий мақсади тадбиркорлар билан аҳоли ўртасида ўзаро ҳурматли муносабатларни ўрнатиш, бир бирига ишончсизликка барҳам бериш.**

- ▶ Одатда пиарнинг отаси деб америкалик журналист Айви Ли ни айтишади. 1906 йилда у пиарнинг тамойиллари ҳақида Декларация эълон қилган.
- ▶ Илгари пиар билан ишлаб чиқарувчи фирмаларнинг вакиллари шуғулланган бўлса энди алоҳида пиар мутахассислари бу ишни бажаришади.

Проф. Эргун Шопира



## 2. PR bo'limlari faoliyati. PR-texnologiyalari, Universitetni bitirganlar jamiyati.

### PR- turhlari va metodlari

**PR** – asosiy turlariga tijorat, ta'lim va siёсий piarlarни киритиш мумкин.

Дастлаб у истеъмомчиларга йўналтирилган эди.

*Public relations, дастури корхона ва ташкилотларнинг товар ва хизматлари ҳақида ҳаққоний ахборот беришга қаратилган. Айниқса янги товарлар, университетлар янги бакалавр йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари очганда пиарнинг аҳамияти катта.*

*Ҳозирги кунда пиарнинг объекти сифатида потенциал инвесторлар (молияий пиар), хокимиятлар, хомийлар, мулк эгалари ва ташкилот ишчилари ҳисобланади.*

*1948 йилда Буюк Британияда пиар институти ва АҚШ да ассоциацияси тузилган*

Проф. Турсун Шейхона

### Таълим тизимида PR нинг 5 та йўналиши

- ▶ ОАВ орқали янги мутахассисликлар, бакалавр йўналишлари, ёки илмий консультация, ёшларнинг стартаплари, инновациялар ҳақида ахборот тарқатиш
- ▶ Университет ходимлари билан алоқа ўрнатиш, бажараётган ишларини сифатли ва вақтида бажаришга рағбатлантириш
- ▶ Кадрларга буюртма берувчи корхона ва ташкилотлари, хусусий мулк эгалари, давлат ташкилотлари, молиявий ташкилотлар билан алоқа ўрнатиш
- ▶ Давлат бошқаруви ташкилотлари, хокимиятлар, вазирликлар ва нодавлат ташкилотлари билан алоқа ўрнатиш
- ▶ Маҳаллий аҳоли, маҳалла, туман аҳоли ва тадбиркорлари билан узвий алоқаларни ўрнатиш ва жамоатчилик фикрини ўрганиш

Проф. Турсун Шейхона

## Таълим тизими менежментда PR – механизмини қўллашда хорижий университетлар филиаллари тажрибаси (ТХВУ)

- ▶ ОТМ миссияси. Рақобатбардош кадрларни тайёрлаб учинчи ренессанснинг пойдеворини яратишга ҳисса қўшиш
- ▶ ОТМ келажаги. Жаҳондаги 1000 таликга кириш
- ▶ ОТМ мақсади. Сифатли ва компетентли мутахассисларни тайёрлаш
- ▶ ОТМ вазифалари. Ўқув тарбия жараёнини тўтовсиз такомиллаштириш, илмий тадқиқотнинг натижадорлигини таъхминлаш ва тижоратлаштириш
- ▶ ОТМ стратегияси. Диверсификация ва маркетинг ниш стратегиялари
- ▶ ОТМ тактикаси. Барқарор рақобатбардош устуворликни бой бермаслик ва вақт фойдаланиб жамоа интеллектуал салоҳияти ва истеъдодини кучайтириш
- ▶ ОТМ натижалари. Таълим жараёнига замонавий педагогик ва АКТ ни узлуксиз жорий этиш, таълим сифати бўйича етакчиликни сақлаб туриш

Проф. Эҳсон Шайхона

## Таълим менежментда рағбатлантириш



Проф. Эҳсон Шайхона

Ta'lim menejmentida PR- mexanizmi oliygohlarning missiyasi, kelajagi, maqsadi, vazifalari, strategiyasi, taktikasi va natijalari haqida oshkora axborot beradi va jamoatchilik fikrini o'rganadi. **Bu masalalarni Toshkent xalqaro Vestminster universiteti misolida ko'rib chiqamiz.**



## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-MAVZU: KADRLAR TAYYORLASHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNI, BUYURTMACHILAR VA JAMOAT TASHKILOTLARI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI BILAN MULOQOT. (4 soat)

Amaliy mashg‘ulotda universitetlar kompleksi, davlat xususiy sektor sherikchiligi asosida kadrlarni tayyorlash, mehnat bozoridagi xorijiy va mahalliy tendensiyalarni inobatga olish, oliy ta‘lim menejmentining PR -mexanizmidagi tavsiflari, oliy ta‘lim muassasalari raqobatbardoshlik mezonlari va ko‘rsatkichlari kabi masalalar ochib beriladi.

Universitet ichidagi jamoatchilikka universitetning o‘quv uslubiy, tarbiyaviy tizimi haqida axborot berish. TXVU ning Course Handbooki, tashkiliy tuzilmasi, talabalar kengashi, resurs markazi, kutubxonasi, bosqichlari, o‘qitish modullari, kredit tizimi, imtihon o‘tkazish usuli haqida axborot. Intranet tizimi, SRS tizimi va uning ishlashi. Xorijiy tajribani O‘zbekiston oliygohlarida qo‘llashni muhokama qilish. Course Handbooki barcha tinglovchilarga taqdim etiladi va u diskussiya qilinadi.

Universitetning piar tizimi haqida axborot beriladi va keng jamoatchilikka universitet haqida oshkora va haqqoniy axborot berish tartibi muhokama qilinadi.

Respublikamizda ta‘lim xizmatlari bozorida amalga oshirilayotgan tub islohotlar oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda yangi imkoniyat yaratib bermoqda. Shuning uchun respublikamizda faoliyat olib borayotgan oliy ta‘lim muassasalari, ayniqsa, xorijiy oliy ta‘lim muassasalari boshqaruvida erishilgan muvaffaqiyatlarni o‘zlashtirishlari, boshqaruvning zamonaviy usul va shakllarini qo‘llashlari muvaffaqiyatga erishishlarida asosiy omil hisoblanadi.

#### **Ta‘lim tizimida PR-mexanizmining 5 ta yo‘nalishi ma‘lum:**

1. OAV orqali yangi mutaxassisliklar, bakalavr yo‘nalishlari, yoki ilmiy konsultatsiya, yoshlarning startaplari, innovatsiyalar haqida axborot tarqatish

2. Universitet xodimlari bilan aloqa o'rnatish, bajarayotgan ishlarini sifatli va vaqtida bajarishga rag'batlantirish
3. Kadrlarga buyurtma beruvchi korxonalar va tashkilotlari, xususiy mulk egalari, davlat tashkilotlari, moliyaviy tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish
4. Dalat boshqaruvi tashkilotlari, xokimiyatlar, vazirliklar va nodavlat tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish
5. Mahalliy aholi, mahalla, tuman aholi va tadbirkorlari bilan uzviy aloqalarni o'rnatish va jamoatchilik fikrini o'rganish

### **Tinglovchilarga birinchi topshiriq:**

**Yuqoridagi piar mexanizmini Siz faoliyat olib borayotgan oliygohda qanday joriy qilish bo'yicha fikringizni jamlang, mumkin bo'ladigan qiyinchiliklarni aniqlang va qaysi yo'nalishlarni hozirning o'zida amalga oshirish mumkinligini baholang.**

Ushbu jarayonda har bir OTMning ixtisoslashuv va milliylik xususiyatidan kelib chiqqan holda, tashqi muhit ishtirokchilari, jamoatchiligi, investorlar, potensial talabalar va ularning ota onalari, raqobatchi oliygohlar, ish beruvchilar, davlat va jamiyat idoralari vakillari bilan uzviy aloqa o'rnatishi lozim. Ichki muhitda oliy ta'lim muassasalari u yoki bu boshqaruv konsepsiyasini amalga oshirishga tayyor turmog'i lozim. Masalan, zamonaviy menejment konsepsiyasini egallash oddiy rasmiy jarayon emas, balki oliy ta'lim muassasalari rivojlanishining navbatdagi muhim bosqichidir. Shu boisdan O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining holati va xususiyatini inobatga olgan holda ta'lim menejmentining Piar mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq..

### **Tinglovchilarga ikkinchi topshiriq:**

**Kurs tinglovchilariga Oliy ta'lim tizimida menejmentning (PR) Piar mexanizmini ko'llab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni o'rganish natijalariga tayanib, hamda zamonaviy menejmentning tavsiflarini e'tiborga olib o'zingiz**

faoliyat yuritayotgan oliygoh uchun piar mexanizmini joriy etish ssenariysini tuzing.

**Oliy ta'lim menejmentining Piar mexanizmidagi tavsiflar.**

<b>Qarab chiqilayotgan soha</b>	<b>Strategik boshqarishning atributlari</b>
<b>Boshqarish mo'ljali</b>	uzoq kelajakda muassasaning yashab qolish (hayotiylik sikli) mo'ljali va maqsadga erishishi; menejmentning oliy ta'lim muassasalari tashqarisidagi imkoniyati, mijozlar (oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan qiziquvchilar) so'roviga asosiy e'tibor qaratishi; zamonaviy boshqaruvga asoslangan oliy ta'lim muassasalari g'oyalarini saqlab qolgan holda rahbariyatga vazifaning maqsadi va vositalarini tanlashni taklif etishi.
<b>Strategiya mohiyati va mazmuni</b>	muassasa rivojlanishining tanlangan uzoq muddatli sifatli yo'nalishi; yo'nalishlarni tanlash, foydalanish vositalari, salohiyat o'zgarishlarini hisobga olgan holda maqsadga erishish faoliyati; oliy ta'lim muassasalari qaysi sohada faoliyat yuritayotganligi yoki yuritmoqchi ekanligini aniqlash uchun asosiy maqsadlar, yo'nalishlar, muhim rejalar yoki dasturlarni tanlash.
<b>Amalga oshirish jarayoni</b>	muassasa oldiga qo'ygan maqsadga erishish va strategiyani amalga oshirish uchun asos yaratadi. Bunda muassasaning strategiyani amaliyotga tatbiq etishga tayyor holdagi faoliyatida zamonaviy o'zgarishlar qilishni tashkil etishdir.
<b>Boshqarish samaradorligi mezoni</b>	oliy ta'lim muassasalarining tashqi muhitdagi o'zgarishlarga samarali moslashishidagi imkoniyatlar.
<b>Xodimlarni boshqarishga yondashuv</b>	ishlovchilarga ishni tashkil etishning asosi sifatida qarash.
<b>Boshqarish ob'ekti o'zgarishi tavsifi</b>	zamonaviy qaror asosida uzoq muddatli va tuzatib bo'lmaydigan asoratlarni o'z ichiga olgan ob'ekt faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun olib boriladigan ishlar eng

	muhim ahamiyat kasb etadi.
<b>Tashqi muhit sharti</b>	yuqori noaniqlik darajasini tavsif etadi.
<b>Strategik qarorlar ko'lam</b>	oliy ta'lim muassasalari strategiyasi asosida yotadigan qaror ta'lim xizmatlari bazasi, salohiyati, xizmat ko'rsatish salohiyatlari rivojlanishiga taalluqlidir.

Yuqoridagi muhim vazifalarni bajarish uchun boshqarish ob'ekti tashqi ta'sirlarni, tavakkalchiliklarni hisobga olishi, tashqi muhitdagi nobarqaror holat keltirib chiqaradigan har qanday o'zgarishga qaror qabul qiluvchi tayyor turmog'i lozim.

Ta'lim menejmentida Piar mexanizmining vazifasi oliygohning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat.

### **Tinglovchilarga uchinchi topshiriq:**

Raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha barcha harakatlar majmuasini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida marketing bo'limidan foydalanish va unga tegishli funksiyalarni bajarishni ishonib topshirish, bu borada oliy ta'limning bozor kon'yunkturasini tahlil qilish va OTMning o'z raqobatdoshligini baholash, uning darajasini qo'llab-quvvatlash yoki oshirish dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, olingan natijalarni monitoring qilish nazarda tutilgan.

### **Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshlik mezonlari va ko'rsatkichlari.**

<b>Raqobatbardoshlik mezonlari</b>	<b>Raqobatbardoshlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar</b>
<b>Oliy ta'lim bozorida raqobat muhiti</b>	Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati: - ijtimoiy-demografik muhit; - iqtisodiy-texnologik muhit; - normativ-huquqiy muhit.
	Oliy ta'lim bozorida OTM muvaffaqiyatlari: - OTM reytingi; - OTM egallab turgan bozor ulushi.
<b>OTMning raqobat mavqei</b>	OTMning ishbilarmonlik nufuzi: - ko'p pog'onali tayyorgarlik tizimi rivojlanganligi; - o'qitish jarayonining sifati;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- professor-o‘qituvchilar tarkibi sifati;</li> <li>- resurslar ta’minoti sifati;</li> <li>- ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati rivojlanganligi.</li> </ul>
	OTM faoliyatini ijtimoiy baholash: <ul style="list-style-type: none"> <li>- OTM ijtimoiy faolligi;</li> <li>- OTM faoliyatining jamiyatda tan olinishi.</li> </ul>
<b>Ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligi</b>	Ta’lim xizmatlari sifati: <ul style="list-style-type: none"> <li>- ta’lim xizmatlari iste’molchisi sifati;</li> <li>- ta’lim xizmatlari ishlab chiqaruvchisi sifati.</li> </ul>
	Ta’lim xizmatlarini taqdim etish jarayonining tashkiliy ta’minoti.
	Ta’lim xizmatlarining ochiqligi.
<b>Bitiruvchilar raqobatbardoshligi</b>	Ixtisoslik raqobatbardoshligi: <ul style="list-style-type: none"> <li>- OTMda olingan ixtisoslikning ijtimoiy mavqei;</li> <li>- OTMda olingan ixtisoslikning muhimligi.</li> </ul>
	Bitiruvchilar kasbiy tayyorgarlik raqobatbardoshligi: <ul style="list-style-type: none"> <li>- kasbiy faoliyat yo‘nalishlarini tanlashda imkoniyatlar doirasi;</li> <li>- kasbiy vakolatlarni shakllantirishni ta’minlaydigan bitiruvchilar shaxsiyatining sifati;</li> <li>- bitiruvchilarning kasbiy tayorgarlik sifati;</li> <li>- bitiruvchilar ehtiyojlari va so‘rovlarini qondirishning to‘laqligi.</li> </ul>
	Bitiruvchilarga bo‘lgan talab darajasi.

Tinglovchilar yuqoridagi raqobatbardoshlik mezonlaridan kelib chiqib o‘zi faoliyat yuritayotgan oliygohning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashi va uning kichik guruhda muhokama qilishga olib chiqishi lozim. Natijalar keys stadi tariqasida muhokama qilinadi va piar tizimining zamonaviyligiga baho beriladi.

## **2-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PR –MEXANIZMINI QO‘LLASH TAJRIBALARI VA MUAMMOLARI**

**(4 soat).**

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash jarayonida talabalar fikrini, bitirganlar tavsiyasini va ish beruvchilarning hamda ota-onalarning fikrini o‘rganish usullari. Kadrlar tayyorlashdagi komplaynslar.


**Oliy ta’lim muassasalarida PR –mexanizmini qo‘llash tajribalari.**  
O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning 2030 yillargacha

mo'ljallangan strategiyasidagi ustuvor yo'nalishlar...

Respublikamizda ta'lim xizmatlari bozorida amalga oshirilayotgan tub islohotlar oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda yangi imkoniyat yaratib bermoqda. Shuning uchun respublikamizda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari, ayniqsa, xorijiy oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida erishilgan muvaffaqiyatlarni o'zlashtirishlari, boshqaruvning zamonaviy usul va shakllarini qo'llashlari muvaffaqiyatga erishishlarida asosiy omil hisoblanadi.

### Tinglovchilarga birinchi topshiriq:

Quyidagi chizmada Toshkent xalqaro Vestminster universitetining tashkiliy tuzilmasi keltirilgan. Uni oliy ta'lim menejmentida piar mexanizmini joriy etilganligi nuqtai nazaridan tahlil eting va qisqacha bu tajribaning qaysi jihatlarini Siz faoliyat olib borayotgan universitet yoki institutda joriy etishini aniqlang.



### Tinglovchilarga ikkinchi topshiriq.

**Hurmatli Prezidentimizning Murojaatnomasidagi oliy ta'lim tizimini tubdan isloh etish, uchinchi renessansni amalga oshirish vazifalaridan kelib**

**chiqib Siz faoliyat olib borayotgan OTM ning missiyasi, kelajagi, maqsadi, vazifalari, strategiyasi, taktikasi va natijalarini aniqlang va uni prezentasiya shaklida tayyorlang.**

**Oliy ta'lim muassasalarida** ta'lim menejmentida PR- mexanizmi oliygohlarning missiyasi, kelajagi, maqsadi, vazifalari, strategiyasi, taktikasi va natijalari haqida oshkora axborot beradi va jamoatchilik fikrini o'rganadi.

**Boshqaruv strategiyasi** beshta bir-biriga bog'liq masalani hal etishga asoslanadi:

1. *Korxonalar yoki tashkilotning missiyasi.* Tashkilot bajarishi lozim bo'lgan strategik ko'ra bilishni, harakat uzoq muddatli yo'nalishini va aniq vazifani shakllantirish.

2. Strategik ko'ra bilish va zimmadagi vazifani aniq maqsad va topshiriqqa aylantirish.

3. Maqsadlar va vazifalarga erishish strategiyasini ishlab chiqish.

4. Boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish. Qabul qilingan strategiyani malakali hamda samarali tadbiq etish va amalga oshirish.

5. Ish natijalarini baholash, yangi yo'nalishlarni o'rganish va rivojlanishning uzoq muddatli yo'nalishi, strategiya maqsadlari yoki amaldagi tajribaga asosan uni amalga oshirish usullari, o'zgaruvchan sharoitlar, yangi g'oyalar va imkoniyatlarga nisbatan to'g'rilovchi xatti-harakatlarni amalga oshirish.



# V. GLOSSARIY

## V. GLOSSARIY.

### **Ta'lim menejmentida PR – mexanizmi moduli bo'yicha glossariy**

**Konsensus** – bu karorlarni ishlab chikish jarayonida barcha baxsli masalalar vav turli-tuman fikrlar yuzasidan bir bitimga kelish yoki kelishishdir.

**Kelishuv** – bu nizoli xolatda muvaffakiyatli chikishning eng muxim sharti- bu murosaga kela olishlikdir.

**Kommunikasiya** – bu kishilar o'rtasidagi uzaro axborot almashuvidir.

**Intizomiy javobgarlik** – bu xizmat burchlarini buzish, su'istemol kilish natijasida kelib chikadi.

**Lavozim** – bu korxonona, muassasa, idora va tashkilotlarda biror rasmiy xizmatni bajarish bilan boglik bulgan vazifa.

**Motivlashtirish** – bu ruxiy omil bulib, shaxs faoliyatining manbai, sababi, dalili va xar xil extimollaridir. U xodimlarni jonli mexnat faoliyatiga ragbatlantiruvchi kuchli vositadir.

**Mezon** – bu takkoshlash yoki baxolash uchun o'lchov, andoza. Masalan, mehnat – kishi kadr-kimmatining mezonidir.

**Nizo** – bu rahbar, ishchi va boshka xodimlar orasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir echimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyatdir.

**Obru** – bu hamma tomonidan tan olingan xamda mehnat evaziga orttirilgan, raxbar uchun zarur ishonch va qalqondir.

**Psixologiya** – insonning ruxiyatini, o'rganuvchi fandir. Inson ruxiyatiga esa sezish, idrok etish, tasavvur, tafakkur, taassuf jarayonlari, xotira, diqqat, e'tibor, iroda, shuningdek inson shaxsining ruxiy xususiyatlari, chunonchi, qiziqish, qobiliyat, fe'l-atvor va mijoz kiradi.

**Struktura** – lotincha so'z bo'lib, narsalar tarkibiy kismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashishi, tuzilishini bildiradi.

**Strategiya** – grekcha «strategos» iborasidan olingan bo'lib, «general san'ati» ma'nosini bildiradi.

**Stress** – inglizcha so'zidan olingan bo'lib, asabiylik, keskinlik degan ma'noni anglatadi.

**Uslub** – bu ishlash, boshqarishdagi o'ziga xos yul, usul ma'nosini anglatadi.

**Fazilat** - bu ijobiy hislat, yaxshi sifat yoki xususiyatdir.

**Qaror** – bu bajarilishi mumkin bo'lgan ishning aniq yulini tanlab olishdir.

**Qaror qabul qilish** – mavjud xolatning bo'lishi lozim bo'lgan holat bilan mos tushmasligi natijasida yuzaga keladi.

**Individuallik** – shaxsning bioijtimoiy xususiyatlari, uning takrormasligi.

**Mansab** — professional o'sish, xizmat pog'onasida ko'tarilish, ijtimoiy tan olinish.

**Jamoa** – umumiy maqsadlarga erishish, tashkilotchiligi va shaxslar orasidagi munosabatlar rivoji bo'yicha barqaror ijtimoiy guruh.

**Shaxs** — o'zligini ifoda etuvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan inson

**Marketing** – bozor iqtisodiyotida savdo, bank faoliyati, ishlab chiqarish va savdoni tashkil etish va boshqarish tizimi.

**Ta'lim menejeri** — professional tashkilotchi, ta'lim sohasida ishbilarmon tashkilotchi inson.

**Menejment** — ta'limni boshqarish.

**Missiya** — oliy ta'lim muassasasining jamiyatdagi ahamiyati.

**Qiziqish** — inson faoliyatining natijasi, harakatning ichki asosi.

**Strategiyani amalga oshirish** — boshqarishni amalga oshirishning chora va tadbirlari, uni bajarish va natijaga erishish yo'llari.

**Stil** - usul, tirgak .

**Rag'bat** – inson psixikasiga tashqi ta'sir, uning natijasida harakat qilishga qiziqish hosil bo'ladi.

**Strategik reja** – qisqa va uzoq muddatli maqsadlar va strategiyalarning amaliy ko'rinishi.

**Strategik ko'rabilish** – oliy ta'lim muassasasining kelguvsi istiqbolining yo'nalishlari.

**Strategiya** – rahbariyatning tashkilot maqsadiga erishishdagi harakatlar majmuasi.

**Mehnatga ish haqi fondi** – ishchi va xodimlarga to'lash uchun ajratilgan pul mablag'lari.

**Maqsad** — faoliyat natijalarining oldindan ifodalanishi.

**Inson** — ijtimoiy sohada unikal imkoniyatlarga ega bo'lgan biologik jonzod.

**Insonshunoslik** — shaxsning taraqqiyoti, faoliyatini optimallashtirish, hartomonlama kamol toptirish haqidagi nazariy, amaliy, antropologik, tabiiy, gumanitar va badiiy bilimlar tizimi.

**Emosiya** — insonga tashqi va ichki ta'sirlar natijasida uning psixologik yoki qalbiy kechinmalari (g'azab, qo'rquv, xursandchilik va h.z.o.).

**Etika** — ahloq to'g'risidagi fan.

**Muloqot etikasi** – insonlarga yaxshi munosabatda bo'lish, qoida va usullari, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

# VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
9. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
10. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

11. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.:O'zbekiston, 2018.
12. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga Murojaatnomasi. “Xalq so'zi” gazetasi. 2020 yil 30 dekabr soni.

### III. Maxsus adabiyotlar:

19. Abduraxmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyot. Darslik.

-T., “Fan” nashriyoti. 2019.

20. Abduraxmanov K.X. *Ekonomika truda. Teoriya i praktika. Uchebnik.* Moskva. Izdatelstvo REA im.Plexanova. –M., 2019.

21. Antipov K.V. *Основы рекламы. Uchebnik.* M., Dashkov i K. 2012.

22. Varakuta S.A. *Svyazi s obshchestvennostyu. Uchebnoe posobie.* M., Izdatelstvo sentr INFRA –M. 2013.

23. Odegov Y.G., Zakirova N.K. *The Economics of Personnel Management. Textbook.* –T., “Iqtisodet” publishing house. 2015. -260 paGES.

24. Akvazba E.O., Uxabina T.E., Cheremisina E.V. *Kachestvo obrazovaniya v sovremennoy obrazovatelnoy organizatsii: problemy i perspektivy // Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya.* – 2015. – 5. URL: [www.sciyence-education.ru/128-21477](http://www.sciyence-education.ru/128-21477) (data obrazeniya: 28.08.2015).

25. Balaskiy E.V., Ekimova N.A. *Международные рейтинги университетов: практика sostavleniya i ispolzovaniya // Ekonomika obrazovaniya.* – 2012.

26. Korznikova G.G. *Menejment v obrazovanii. Prakticheskiy kurs.*-M. «Akademiya», 2008. -288 str.

27. Uzbekistan. *Modernizatsiya sistema vysshego obrazovaniya. Sektor po chelovecheskomu razvitiyu. Otdel po rabote so stranami sentralnoy Azii. Regionalnoe upravlenie po Evrope i sentralnoy Azii. Dokument Vsemirnogo banka.* – 2014. – 156 s.

28. Armstrong, M., (2011). *How to be an even better manager.* Kogan Page, Philadelphia, 303 p.

29. Nordstrom, Kjell A., Ridderstrale, Jonas (2000). *Funky Business: Talent Makes Capital Dance.* (<https://books.google.com>).

30. *Svyazi s obshchestvennostyu (publik releynshin).* Uchebnoe posobie (M.I. Timofeev). –M., IS RIOR, 2019 .

31. *Интеллектуальный капитал – strategicheskiy potentsial organizatsii: Uchebnoe posobie.* Pod red. Gaponenko A.L. i Orlovoy T.M. – M.: Izdatelskiy dom «Sotsialnye otnosheniya», 2013.

#### IV. Internet saytlar:

32. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

33. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

34. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

35. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.

36. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
6. [www.raso.ru](http://www.raso.ru). – Rossiyskaya Assosiasiya s obshchestvennostyu.